

**O‘QUVCHILARDA BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING  
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MASALALARI**

*G'aniyev Tursunboy Hamza o'g'li*

*Samarqand viloyati Urgut tumani 80-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘quvchilarning bilish jarayonlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik masalalari yoritilgan. Bilish jarayonlarining asosiy turlari, ularning o‘quv faoliyatidagi ahamiyati hamda ta’lim jarayonida rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog va psixologlarning ushbu jarayondagi o‘rni ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bilish jarayonlari, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, o‘quv faoliyati, psixologik rivojlanish, pedagogik yondashuv.

**KIRISH**

Insonning atrof-muhitni anglash va o‘zlashtirish faoliyati bilish jarayonlari orqali amalga oshadi. Bilish jarayonlari shaxsning intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutib, o‘quvchilarning bilimlarni egallashi, qayta ishlashi va amaliyotda qo‘llashida asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish va shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bilish jarayonlariga sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kiradi. Ushbu psixik jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi va insonning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mazkur jarayonlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Sezgi va idrok bilishning dastlabki bosqichlari bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar atrofdagi voqelikni qabul qiladilar. Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish sezgi va idrokning samarali rivojlanishiga yordam beradi. Turli rasmlar, jadvallar, tajribalar va multimedia vositalari o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Diqqat o‘quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘quvchining dars jarayoniga faol jalb etilishi, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishi diqqatning barqarorligi bilan bog‘liq. Shu bois pedagoglar interaktiv metodlar va qiziqarli topshiriqlar orqali o‘quvchilarning diqqatini faollashtirishlari lozim. Xotira bilimlarni eslab qolish, saqlash va qayta tiklash imkonini beruvchi muhim psixik jarayondir. Takrorlash, mantiqiy bog‘lanishlarni o‘rnatish va amaliy mashqlar xotirani rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Xotiraning rivojlanishi o‘quvchilarning bilimlarni mustahkam egallashiga xizmat qiladi.

Tafakkur o‘quvchilarning muammolarni hal etish, tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim metodlari, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tasavvur esa o'quvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarlar bilan ishlash, rasm chizish, loyihalar yaratish va turli ijodiy mashg'ulotlar tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi. Bilish jarayonlarini rivojlantirishda maktab amaliyotchi psixologi ham muhim o'rin tutadi. Psixolog diagnostika va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlaydi hamda ularga mos tavsiyalar ishlab chiqadi.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar — sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'grisida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgari idrok obrazlari ham eslab qolish, ham ichki nutqimiz, irodemiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham emotsiyalardan tashqari, o'sha narsaning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi. Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'tardi. Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffiqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblar yordamida aslida odam ko'rmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida gavdalanadi.

Bilish jarayonlari — bu inson ongida borliqning aks etishini ta'minlovchi psixik jarayonlardir. Ular yordamida inson atrof-dagi narsa va hodisalarni qabul qiladi, qayta ishlaydi va ularga nisbatan munosabat bildiradi. Bilish jarayonlari ikki katta guruhga bo'linadi: hissiy bilish jarayonlari va mantiqiy bilish jarayonlari. Hissiy bilishga sezgi va idrok kirsa, mantiqiy bilishga tafakkur asos bo'ladi. Diqqat esa barcha bilish jarayonlarini tartibga soluvchi umumiy psixik holat hisoblanadi.

Sezgi — bilishning boshlang'ich bosqichi

Sezgi — bu tashqi olamdagi narsa va hodisalarning alohida xususiyatlarining (rang, tovush, harorat, hid, ta'm va boshqalar) sezgi a'zolari orqali ongda aks etish jarayonidir. Sezgi inson bilish faoliyatining eng oddiy, ammo eng muhim shaklidir.

Chunki sezgisiz idrok, tafakkur va xotira kabi murakkab jarayonlarning shakllanishi mumkin emas. Sezgi insonni tashqi olam bilan bog'lovchi birinchi psixologik ko'prik hisoblanadi. Inson sezgi orqali borliq haqidagi dastlabki axborotni oladi.

Sezgilarning turlari

Psixologiyada sezgilar quyidagi turlarga bo'linadi:

Ko'rish sezgisi — predmetlarning rangi, shakli va hajmini aks ettiradi.

Eshitish sezgisi — tovush va nutqni idrok etishda muhim ahamiyatga ega.

Hid bilish sezgisi — turli hidlarni farqlash imkonini beradi.

Ta'm bilish sezgisi — ovqat va moddalar ta'mini sezish bilan bog'liq.

Teri sezgilari — harorat, og'riq va bosimni aks ettiradi.

Harakat sezgilari — tana harakati va mushak holatini anglashga yordam beradi.

Organik sezgilar — ichki a'zolar holatini sezish bilan bog'liq.

Sezgilarning xususiyatlari

Sezgilar intensivligi, davomiyligi, moslashuvchanligi va sezuvchanligi bilan tavsiflanadi. Masalan, inson qorong'ilikka moslashib, vaqt o'tishi bilan yaxshiroq ko'ra boshlaydi. Bu sezgilarning moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Diqqat — bilish jarayonlarini boshqaruvchi omil

Diqqat — bu ongning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda jamlanishidir. Diqqat mustaqil bilish jarayoni bo'lmasa-da, barcha bilish jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi. Diqqat bo'lmasa, sezgi va idrok yuzaki bo'ladi, bilim esa mustahkam shakllanmaydi.

Diqqatning turlari

Diqqat quyidagi turlarga bo'linadi:

Ixtiyorsiz diqqat — inson irodasidan tashqari yuzaga keladi.

Ixtiyoriy diqqat — maqsadli va ongli ravishda boshqariladi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat — faoliyat qiziqarli bo'lib, diqqat zo'riqishsiz davom etadi.

Diqqatning asosiy xususiyatlari

Diqqatning hajmi, barqarorligi, bo'linuvchanligi, ko'chuvchanligi va jamlanishi uning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Masalan, dars jarayonida o'quvchining diqqatini uzoq vaqt saqlay olishi uning diqqat barqarorligini bildiradi.

Idrok — borliqning yaxlit aks etishi

Idrok — bu sezgilar asosida narsa va hodisalarning ongda yaxlit, ma'noli obraz sifatida aks etishidir. Idrok jarayonida inson predmetni alohida belgilar yig'indisi sifatida emas, balki bir butun holda qabul qiladi.

Idrokning xususiyatlari

Idrok quyidagi xususiyatlarga

ega: predmetlilik yaxlitlik  
barqarorlik ma'nolilik

Masalan, inson turli masofadan qarasa ham, predmet hajmini taxminan bir xil deb idrok etadi.

Idrokning turlari

Idrok ko‘rish, eshitish, fazoni, vaqtni va harakatni idrok etish kabi turlarga bo‘linadi. Idrok shaxsning tajribasi, bilimi va diqqat darajasiga bog‘liq holda rivojlanadi.

Xotira — bilish jarayonlarining saqlovchi mexanizmi

Xotira — bu inson tomonidan o‘z tajribasida orttirilgan bilim, ko‘nikma, malaka va taassurotlarning esda olib qolinishini, saqlanishini va zarur paytda qayta tiklanishini ta‘minlovchi bilish jarayonidir. Xotira bilish jarayonlari tizimida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi, chunki u sezgi, idrok, diqqat va tafakkur orqali olingan axborotning yo‘qolib ketmasdan ongda mustahkamlanishini ta‘minlaydi.

Xotira bo‘lmasa, inson o‘z tajribasini jamlay olmaydi, bilimlar uzviy tizimga aylanishi mumkin bo‘lmaydi. Shu sababli xotira shaxs rivojlanishining muhim psixologik asosi hisoblanadi.

Xotiraning asosiy jarayonlari

Xotira uch asosiy jarayon orqali namoyon bo‘ladi:

esda olib qolish, saqlash va esga tushirish. Esda olib qolish axborotni qabul qilish va uni

ongda mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lsa, saqlash jarayoni axborotning vaqt davomida ongda barqaror qolishini ta‘minlaydi. Esda tushirish esa oldin o‘zlashtirilgan bilim va taassurotlarni qayta tiklash jarayonidir.

Xotiraning turlari

Xotira mazmuni va davomiyligiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Qisqa muddatli xotira axborotni qisqa vaqt saqlasa, uzoq muddatli xotira bilimlarning uzoq vaqt ongda saqlanishini ta‘minlaydi. Mazmuniga ko‘ra obrazli, so‘z-mantiqiy, harakat va emotsional xotira farqlanadi.

Ayniqsa, so‘z-mantiqiy xotira ta‘lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq — bilish va muloqotning asosiy vositasi

Nutq — bu insonning til vositalari orqali fikr almashish, o‘z bilim va munosabatlarini ifodalash jarayonidir. Nutq bilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa tafakkur va xotira bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Nutq orqali inson nafaqat muloqot qiladi, balki o‘z fikrini shakllantiradi va tartibga soladi.

Nutq insonning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Til va nutq orqali jamiyat tajribasi avloddan-avlodga o‘tadi.

Nutqning turlari

Psixologiyada nutq ichki va tashqi nutqqa bo‘linadi. Tashqi nutq og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutq bevosita muloqot jarayonida qo‘llanilsa, yozma nutq fikrning aniq va mantiqiy ifodalanishini talab qiladi. Ichki nutq

esa insonning ichki fikrlash jarayoniga xizmat qiladi va tafakkurning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq va bilish jarayonlari

Nutq bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Sezgi va idrok orqali qabul qilingan axborot nutq orqali umumlashtiriladi, xotirada mustahkamlanadi va tafakkur jarayonida qayta ishlanadi. Nutqning rivojlanganligi insonning bilim darajasi va fikrlash madaniyatini belgilaydi.

Tafakkur — bilishning eng yuqori bosqichi

Tafakkur — bu insonning borliqni bilvosita va umumlashtirilgan holda aks ettirish jarayonidir. Tafakkur yordamida inson narsa va hodisalarning mohiyatini anglaydi, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ochib beradi. Tafakkur bilish jarayonlarining eng murakkab va eng yuqori shakli hisoblanadi.

Tafakkur sezgi va idrokdan farqli ravishda, bevosita emas, balki bilvosita bilim olishga asoslanadi. Masalan, inson ko‘rmagan hodisa haqida ham tafakkur orqali xulosa chiqarishi mumkin.

Tafakkurning asosiy shakllari

Tafakkur tushuncha, hukm va xulosa chiqarish orqali namoyon bo‘ladi. Tushuncha predmet va hodisalarning muhim belgilarini umumlashtirsa, hukm orqali ularning o‘zaro munosabati ifodalanadi. Xulosa chiqarish esa yangi bilim hosil bo‘lishiga olib keladi. Tafakkurning turlari

Tafakkur ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va mantiqiy tafakkur kabi turlarga bo‘linadi. Mantiqiy tafakkur ilmiy bilimlarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Tafakkur nutq bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fikr nutq orqali aniq shaklga ega bo‘ladi.

Bilish jarayonlarining umumiy o‘zaro bog‘liqligi

Xotira, nutq va tafakkur sezgi, diqqat va idrok bilan birgalikda yagona bilish tizimini tashkil etadi. Sezgi va idrok orqali axborot qabul qilinadi, diqqat uni tartibga soladi, xotira saqlaydi, nutq orqali ifodalanadi va tafakkur jarayonida chuqur qayta ishlanadi. Ushbu jarayonlarning uyg‘un rivojlanishi insonning intellektual salohiyatini belgilaydi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning bilish jarayonlarini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvurning rivojlanishi o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltiradi va ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Vygotskiy L. S. Tafakkur va nutq. — Moskva: Labirint, 2005.
2. “Umumiy psixologiya” P.I.Ivanov, M.E.Zufarova O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2021.
3. “Umumiy psixologiya” F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Toshkent – 2009.
4. “Umumiy psixologiya” E.G’.G’oziyev Toshkent – 2020. 5. “Kichik maktab yoshidagi bolalarda aqliy taraqqiyotning namoyon bo‘lishi.
5. Sharipova, N. (2023). PHONETICS: UNLOCKING THE SOUNDS OF LANGUAGE. B ZDIT (T.
6. Sharipova Nodira Shavkat Qizi, . (2024). TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS USING CLIL METHOD IN CLASS. International Journal of Pedagogics, 4(06), 161–164. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue06-29>.
7. Ziyonet